

O‘ZBEK TILIDA QISQARTMA OTLAR (ABBREVIATURALAR)NING LINGVISTIK TADQIQI VA NUTQDAGI O‘RNI

Samarqand davlat pedagogika instituti O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 1-bosqich talabasi

Ismoilova Xayriniso Akbar qizi

Ilmiy rahbar: O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasida

assistenti Yusupov Sardor Shodi o‘g‘li

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy o‘zbek tilshunosligining qisqartma otlar (abbreviaturalar)ning shakllanish sabablari, grammatik xususiyatlari hamda ularning jamiyat va til taraqqiyotidagi o‘rni ilmiy asoslar bilan tahlil qilinadi. Abbreviatsiya hodisasi lisoniy tejamkorlik va kognitiv semantika prizmasi hisoblanadi. Maqolada qisqartma otlarning leksikalizatsiyalashuv jarayoni hamda nutqiy kommunikatsiyadagi pragmatik funksiyalari va ularni qo‘llashdagi muammolar asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar. Abbreviatura, qisqartma otlar, lingvistik ekonomiya, til iqtisodiyoti, nutq, termin, leksik birlik, rasmiy-idoraviy uslub, murakkab nomlar, nominatsiya, lingvokulturologiya.

Har qanday til jamiyat bilan birga rivojlanadi va uning ehtiyojlariga qarab moslashadi. Til taraqqiyotining hozirgi bosqichi axborot oqimining shiddatligi va ijtimoiy munosabatlarning globallashuvi bilan xarakterlanadi. Shu sababli hozirgi zamon tilshunosligida til birliklarini ixchamlashtirish va axborotni qisqa vaqt ichida yetkazish dolzarb masalalardan biridir. Bu jarayonda til vositalarining qisqaligi va qulayligi muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbek tili lug‘at tarkibining boyib borishi va ijtimoiy-siyosiy hayotdagi o‘zgarishlar natijasida ko‘p komponentli nomlar tizimi shakllana boradi. Bu jarayonda lisoniy tejamkorlik tamoyili yetakchilikni qo‘lga kiritadi. Shu nuqtayi nazardan o‘zbek tilida qisqartma otlar, ya‘ni abbreviaturalar alohida o‘rinni egallaydi. Abbreviatsiya – nafaqat so‘z yasash usuli, balki inson tafakkuridagi murakkab tushunchalarni ixcham ramziy shakllarga ko‘chirishning kognitiv jarayonidir. Bu so‘zlarni shunchaki so‘zlarni qisqartirish emas balki tilning morfologik, sintaktik va fonetik o‘zgarishlar majmuyidir [3:89]. Qisqartmalar dastlab rasmiy va ilmiy uslubda bo‘lgan bo‘lsa, bugungi kunda ular kundalik nutqda ham keng qo‘llanilmoqda. Ular tilning iqtisodiylik qonuniga mos holda shakllanib, murakkab nomlarni qisqa va tushunarli shaklda ifodalash imkonini beradi.

O.G.Kosareva: “Qisqartma kommunikativ birliklarning birliklarning moddiy qobig‘ini kamaytiradi va shu bilan axborot oqimi tezligini oshiradi” – deb ta‘kidlaydi [1:423-426]. Jahon tilshunosligida ham, o‘zbek tilida ham qisqartmalar bo‘yicha

ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib bormoqda. Jumladan, D.I.Alekseyev (Belorussiya, 1958), S.B.Berlizon (Moskva, 1963), R.I.Mogilevskiy (Tbilisi, 1966), V.V.Borisov (Moskva, 1972), Z.A.Aliqulov (Toshkent, 1976), D.I.Alekseyev, Saratov, 1979), M.M.Adilov (Boku, 1984). L.V.Vasilchenko (Olma-ota, 1986), Kennon Garland (London, 1989), A.A.Bezrukova (Moskva, 1999). O.G.Kosereva (Tver, 2003), E.P.Janaqulov (Toshkent, 2020) tilshunoslikning aynan shu sohasi bo‘yicha ilmiy faoliyat yuritishgan.

XX asr oxiri – XXI asr boshidagi lug‘atlar asosida qisqartmalarning qanday yasalishi, xususan, rus tilining ta’siri kamayib, o‘zbekcha va inglizcha shakllari ko‘payayotgani yaqqol ko‘zga tashlanadi. Ilgari, asosan, rus tili orqali kirib kelgan qisqartmalar ishlatilgan bo‘lsa, hozirda o‘zbekcha va xalqaro ingliz tilidagi shakllar faol qo‘llanilmoqda.

O‘zbek tilshunosligidagi abbreviaturalar, asosan, XX asrning 40-80-yillarida asosan faol o‘rganila boshlagan. Bunda Ayyub G‘ulomov kabi tilshunoslar olimlarning ilmiy qarashlari muhim o‘rin tutadi. Ayyub G‘ulomov o‘zbek tilshunosligida, xususan, o‘zbek tili leksikologiyasi, grammatikasi va atamalarni shakllantirish sohasida muhim tadqiqotlar olib borgan olimlardan biridir. Uning abbreviaturalar (qisqartma so‘zlar) va murakkab so‘zlar yasash masalalariga bag‘ishlangan ishlari o‘zbek terminologiyasini boyitish va tartibga solishda asosiy manbalardan hisoblanadi. Uning tadqiqotlari qisqartma so‘zlarning o‘zbek tili imlo qoidalariga mos ravishda yozilishi va gap tarkibida qo‘llanish me‘yorlarini ishlab chiqishda ishtirok etgan. Bundan tashqari Orif Tolib (Orif Tolibov) – o‘zbek tilshunosi, tahrirchi, atamalar komissiyasi ekspertlar guruhi a‘zosi va blogger. Uning ilmiy-ommabop faoliyatida, shuningdek, orifolib.uz sayti va ijtimoiy tarmoqlardagi chiqishlarida o‘zbek tilidagi qisqartmalar (abbreviaturalar) va ularning to‘g‘ri yozilishi hamda qo‘llanilishi masalalariga alohida e‘tibor qaratilgan. Orif Tolib abbreviaturalarni ilmiy jihatdan tahlil qilish bilan birga ularning amaliyotda to‘g‘ri qo‘llanishi bo‘yicha faol targ‘ibotchi hisoblanadi. Shu bilan birga zichlik va bu jarayonning murakkabligi muammoning dolzarbligini belgilaydi, qisqartmalarni sinchkovlik bilan o‘rganishga murojaat qilish zaruratini yuzaga keltiradi.

O‘zbek tilida mustaqillik davridan so‘ng davlat boshqaruvi iqtisodiyot va ta‘lim sohalarida yangi nomenklaturalarning paydo bo‘lishi abbreviaturalar tizimini tubdan yangiladi.

Mustaqillikdan oldin ko‘p foydalanilgan tarixiy qisqartmalar:

MTS – mashina-traktor stansiyasi

Gorkom – shahar qo‘mitasi (hozirda “hokimiyat”yoki “kengash” so‘zlari ishlatiladi.)

ZAGS (FHDYo) – Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish

Bu atamalar o‘z davrida faol qo‘llanilgan, ammo hozirga kelib hech bir tashkilot, hech bir hujjatda bular aks etmaydi, o‘rnini boshqa so‘zlarga bo‘shatib bergan. Qisqartmalar, asosan, rasmiy, idoraviy, publitsistik va ilmiy uslublarda keng yoritiladi. Ularning asosiy vazifasi nutqni keraksiz takrorlardan xalos etish va matn hajmini ixchamlashtirishdir. Masalan, matnda “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi” birikmasini bir necha bor qo‘llash noqulaylik tug‘diradi. Uni DTM shaklida berish esa, matn o‘qilishini osonlashtiradi. Bu atama o‘rniga hozirda BMBA (Bilim va malakalarni baholash agentligi) birikmasi ham kirib keldi. Shu bilan birga oldingi DAN (Davlat avtomobil nazorati) o‘rnida YXH (Yo‘l harakati xavfsizligi) atamasi ishlatilmoqda.

Lingvistik nuqtayi nazardan qisqartmalar leksik birlik sifatida qaraladi va ular tilning lug‘at tarkibiga kiradi. Vaqt o‘tishi bilan ayrim qisqartmalar mustaqil so‘z sifatida qabul qilinadi va hatto asl shaklidan ko‘ra ko‘proq foydalaniladi.

MCHJ – ma‘suliyati cheklangan jamiyat (tadbirkorlikda eng keng tarqalgan shakl)

ID karta – identifikatsiya kartasi (shaxsni tasdiqlovchi hujjat)

OAV – ommaviy axborot vositalari

BHM – bazaviy hisoblash miqdori (jarimalar va to‘lovlar uchun o‘lchov birligi)

Mustaqillik davrida shakllangan va o‘z tilimizga muqim o‘rnashgan. Qisqartma otlar fan va ta‘lim sohasida ham sezilarli darajada o‘z kuchini ko‘rsatmay qolmagan, albatta. Bularga misol:

O‘zMU – O‘zbekiston Milliy universiteti (oliy ta‘lim muassasi)

O‘ZRFA – O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi (ilmiy sohadagi asosiy qisqartma shakl)

EHM – elektron hisoblash mashinasi (kompyuterlar uchun ishlatiladigan texnik atama)

OAK – Oliy attestatsiya komissiyasi

SamDPI – Samarqand davlat pedagogika instituti

Xalqaro tashkilotlar va global tushunchalar o‘zbek tili lug‘atiga tayyor holda kirib kelgan yoki so‘zma-so‘z tarjima qilingan qisqartmalar:

BMT – Birlashgan Millatlar Tashkiloti (dunyo miqyosidagi eng taniqli abbreviatura)

AQSH – Amerika Qo‘shma Shtatlari (mamlakat nomining o‘zbekcha qisqartmasi)

XXR – Xitoy Xalq Respublikasi

FIFA, FIDE, NATO – o‘zgarishsiz qabul qilingan xalqaro qisqartmalardir.

Abbreviatura tilning “siquv”quvvati va nutqiy tejamkorlik estetikasi hisoblanadi. Xulosa o‘rnida aytish joizki, qisqartma otlar tilning “ortiqcha yuk”dan xalos bo‘lish va fikrni eng qisqa nuqtaga jamlashga bo‘lgan intilishdir. Ular tilning statik qoidalar to‘plami emas, balki tirik, nafas oluvchi va doimiy evolyutsiyadagi hodisa ekanligini tasdiqlovchi asosiy dalillardan biridir.

Kelajak tili – bu ixchamlik, aniqlik va tezkorlik tili bo‘lib, unda abbreviaturalar asosiy qurilish materiali bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. A.Nurmonov, A.Sobirov. “Hozirgi o‘zbek adabiy tili”, Toshkent, “Ilm-ziyo”, 2013, 476 b.
2. A.Nurmonov “Tanlangan asarlar” 1-2 jildlar. Toshkent, Akademik nashr, 2012.
3. M.Asqarova, K.Qosimova, H.Jamolxonov. “O‘zbek tili”. Toshkent “O‘qituvchi”. 1989. 198 b.
4. A.Hojiyev “Lingvistik terminlarning izohli lug‘ati”. Toshkent. 1985. 166 b.
5. G.Asilova “Ilmiy tadqiqot faoliyati asoslari”, uslubiy qo‘llanma. Toshkent. 2020.
6. Oriftolib.uz. “Qisqartmalar imlosi: lotin yozuvidagi xatolar.